



ARAM ILICH XACHATURYAN IJODI HAMDA UNING MUSIQIY MEROSINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Xodjakulov Baxodir Xudaykulovich

Guliston davlat universiteti v. b dotsenti

Pazliyev O‘rolbek Zuhritdin o‘g‘li

Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘z davrining yetuk kompozitori, akademik, dirigor, pedagog A.I.Xachaturyan hayoti va ijodi haqida fikr yuritilgan bo‘lib uning bugungi kun cholg ‘u ijrochiligi yo ‘nalishi mutahasislarini tarbiyalashdagi o ‘rni hususida so ‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Bastakor, dirigor, konsert, violanchel, musiqiy ta’lim, musiqiy meros, ijodiy jarayonlar, fortepiano, simfoniya, sinfonik asarlar.

Abstract: This article reflects on the life and work of A.I. Khachaturyan, a mature composer, academician, conductor, pedagogue of his time, and his role in educating today's specialists in the field of musical performance

Key words: Composer, conductor, concert, cello, musical education, musical heritage, creative processes, piano, symphony, symphonic works.

Buyuk bastakor, SSSR va Armaniston kompozitori, dirigor, pedagog, san’at arbobi Aram Ilich Xachaturyan, Rossiya imeriyasi Tiflis guberniyasi kodjarida (Gruziyada) 1903-



-yilning 6-iyunida tavallud topgan. Otasi Ilya Xachaturyan kitob muqovasoz bo'lib ishlagan. Onasi Xumash Sarkisovna uy bekasi bo'lgan, Aram oilada to'rtinchi farzand bo'lib, 1911-yildan 1913-yilgacha xususiy (panseon) maktabida taxsil olgan. 1913-1921 yillar oralig'ida maktab ansamblida

fortepiano, go'rn, tuba cholg'ularini ijro etishni o'rganadi, lekin ota - onasi uni musiqa bilan shug'ullanishiga qarshi bo'lgan. Barcha qarshiliklarga qaramay Aram, 19 yoshidan boshlab musiqa bilan shug'illana boshlagan. Uning birinchi ustoz, kompozitor Mushel Agayan bo'lgan.


1921yil 18 yoshli Aram bir guruh armyan yoshlari bilan Moskvaga keladi. U yerda uning katta akasi Suren Xachaturyan teatr rejissyori bo'lib ishlardi. Aram Moskva universitetining tayyorlov kursiga hujjat topshiradi va 1922 yilda universitetning fizika - matematika fakulteti biologiya bo'limi talabasi bo'ladi. Bir vaqtning o'zida Genasina nomli davlat musiqa kollejiga o'qishga boradi. U imtihon komissiyasi a'zolariga qarab: - "men bu katta skripkada o'qimoqchiman" deydi. Qabul komissiyasi kulgidan o'zlarini bosa olmaydilar. Lekin Aramdagi iqtidorni ko'rgan komissiyasi a'zolari uni violanchel-fortepiano kompozitorligi sinifiga o'qishga qabul qilishadi, biroq u violanchelchi bo'lmadi.

1925-yili universitetdagi o'qishini to'xtatib butkul Genasina musiqa kollejida kompozitorlik sinifida taxsil olishni boshlaydi va 1929-yil o'qishni tamomlaydi. 1929-yilda Moskva konservatoriyasiga mashhur sovet bastakori va o'qituvchisi N.Y. Myaskovskiy sinfiga o'qishga kiradi. Simfonik konsertlarda S.Raxmoninov, L.V.Betxovening asarlarini



eshitib ilhomlanadi va o'z ijodiy faoliyatini boshlab yuboradi. U o'qib yurgan davrlarida fortepiano va skripka uchun yozgan "Raqs" asari uning birinchi ishi hisoblanadi.

1934-yil Konservatoryani tamomlab, ikki yil mobaynida Asperanturada tahsil oladi. Xachaturyan musiqasi, o'ta jo'shqinligi, hayotbaxshligi, kuylar jozibadorligi, garmoniya va orkestr bo'yoqlarining rangbarangligi bilan ajralib turadi. Uning ijodida Kavkaz xalqlari ayniqsa, arman musiqasi (gusanlar) "Oshiqlar san'ati" va boshqa an'analarni zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti tamoyillari bilan uzviy bog'lab, o'ziga xos uslubni yaratishga erishgan. 1929-yilda skripka va fortepiano uchun "Qo'shiq" poemasi, Alt va fortepiano uchun "Syuita" asari, fortepiano uchun "Tokkato" asarlarini yaratadi. 1932 yilda klarnet, skripka, fortepiano cholg'ulari uchun "Trio" asarini yaratadi. U sharq va yevropa musiqasi an'alarini uzviy uyg'unlashtirib, buyuk va o'ziga xos iste'dod manbaiga aylantirganligini isbotladi. Uning yangi asarlari birin - ketin paydo bo'ladi. Bu nafaqat ijodiy kuchning shiddati, balki iste'dodning tez o'sishi barcha san'at ixlosmandlarini ajablantirardi.



1934-yilda Aram Xachaturyan 1-simfonyasini yaratadi, 1936-yilda orkestr va fortepiano uchun "Konsert" yaratadi, 1940-yilda skripka 1946-yilda esa violanchel uchun "Konsert" yaratadi. 1960 yilda yangi 3 xil cholg'ularga konsert, (rapsodiya) yaratadi. 1961 yil, 1963 yil veolanchel, 1968-yil fortepiano cholg'ular uchun "Konsert"lar yaratadi. 1945yilda 3-piesa fortepiano uchun yaratadi, 1944 yil 2-simfonyasini yaratadi va uni "Qo'ng'iroq" deb ataydi. 1947 yil 3-simfonyasini (poema) deb nomlaydi. 1959 yil fortepiano uchu (sonata), 1961-yil (sonatina) asarlari ijodkorning yaratgan asarlari ichida alohida ajralib turadi.



U umrining so‘ngi davrlarida, torli cholg‘ular skripka, alt, violanchel uchun 3 ta (sonata) yaratadi. 1939 yil “Baxt” nomli 1-baletini yaratadi. 1942 yilda ushbu asar Leningrad teatrida qayta namoyish etiladi va tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ladi.

“Qilichbozlar raqsi”, “Gayane” baleti, kompozitorga jaxonshumul shuhrat keltirgan. 1944 yil Armaniston SSR davlat madhiyasiga musiqa bastalagan. “Spartak” baleti 1956-yilda ilk bor sahna yuzini ko‘rgan.

Ko‘pkina filmlar va spektakllarga kuy va asarlar yaratgan, shulardan: “Pepo”, “Lenin”, “Admiral Ushakov”, “Ularning vatani bor”, “Jo‘rdana Bruno”, “Atelo”, “Stalingrad jangi” filmlariga, hamda “Makbet”, “Qirol Lir”, “Maskarad” kabi spektakllarga musiqalar yaratgan.

1950-yilda Vashington, Tokio, Parij, Nyu-york va boshqa shaharlarida dirijor sifatida o‘z konsertlari bilan ijodiy safarda bo‘lgan.

Sergey Prokofyev, Dmitriy Shostakovich, Glier Reyngold, Mortisevich, David Fyodorovich Oystax kabi o‘z zamonasining yetuk ijodkor mutaxasislari bilan muntazam ravishda tajriba almashib turgan va ijodiy uchrashuvlarda bo‘lgan.

1950-yilgi Genasina nomli musiqa pedagogika institutida dars beradi. 1951-yil Moskva konservatoryasida kompozitorlikdan dars beradi va shu yilning o‘zida professor unvonini oladi. 1939-1948 yillar SSSR kompozitorlar qo‘mitasi ittifoqi raisining o‘rinbosari, 1957-yilda SSSR kompozitorlar ittifoqining raisi lavozimida ishlagan.

Hayotining so‘nggi yillarida bastakor doimiy kasalliklarni boshidan o‘tkazdi. Gnesinning tarbiyalanuvchisi ko‘p vaqtni shifoxonada o‘tkazgan. 1965-yilning oktabr oyi boshlarida ijodkor yurak xurujidan so‘ng Jenevaga kasalxonaga yotqizilgan. 1976-yilda Nina Vladimirovna vafot etdi. 1978-yil 1-mayda Moskvada 75 yilligidan oldin Aram Ilichning yuragi to‘xtadi. Ularning o‘limiga uzoq davom etgan kasalliklar sabab bo‘lgan. Siyosatchilar, hamkorlar, do‘stlar, minglab yordamchilar muallif bilan qoshlash uchun



konservatoriyaning Katta zaliga kelib, uning musiqa sazovor bo'ldi. 6-may kuni ustalar vasiyatiga binoan Yerevandagi Komitas nomidagi bog'ning panteoniga dafn qilindi.

Xachaturyan asarlari vafot etgandan so'ng Moskvada chop etilgan ko'p tomlik asarlari yig'ilishida e'lon qilindi. 1978-yildan Erevan filarmoniyasining katta konsert zali.

Dirijor nomidagi xalqaro tanlov Armeniya poytaxtida 2003-yildan boshlab har yil 6-14 iyun kunlari o'tkaziladi. Loyiha ilk bor musiqachi tug'ilganining 100 yilligi munosabati bilan amalga oshirildi.

2006-yili Moskvada buyuk kompozitor haykali ochildi. Marosimda Robert Kocharyan, Yuriy Lujkov va Lyudmila Putina ishtirok etdi.

2023-yil iyun oyi boshida Pyotr Chaykovskiy nomidagi Moskva davlat konservatoriyasida Aram Ilichning tug'ilganining 120 yilligiga bag'ishlangan gala-kontsert bo'lib o'tdi. Sahnaga Armaniston milliy filarmonik orkestrining bosh dirijyori va badiiy rahbari Eduard Topchyan chiqdi, tadbir repertuarida esa Xachaturyanning «Spartak», «Gayane», «Maskarad» kabi asarlari bor edi.

Bastakor itlarni yaxshi ko'rgan va sovg'a qilingan kuchukcha Lyado sharafiga (2 nota nomi bo'yicha) u o'zini bosib olganda «Lyado jiddiy kasal bo'ldi» pyesasini yozgan.

Kompozitor instrumentalist, ateist edi, lekin Vatikanga tashrif buyurganidan so'ng, «Men birinchi bo'lib xristianlikni rasman qabul qilgan arman xalqining o'g'li edim va shuning uchun Vatikonga borish mening burchim edi», deb aytdi.

2013-yili YUNESKO Aram Xachaturyanning qo'lyozmalarini dunyo hujjatli merosining bir qismi deb e'lon qildi.

Asarlari:

- 1926-yil “Skripka va fortepiano uchun raqs”



- 1932 -yil “Fortepiano uchun tokkata“
- 1933-yil – “Raqs syuitasi“
- 1934 -yil ”№ 1 simfoniya“
- 1936-yil “Orkestr bilan fortepiano uchun birinchi konsert“
- 1940-yil “Orkestr bilan skripka uchun birinchi konsert”
- 1942 -yil “Gayane” baleti
- 1946-yil “Violonchel uchun orkestr bilan birinchi konsert”
- 1954 -yil “Spartak“ baleti
- 1982 -yil “Maskarad” balet

Unvonlari:

1. “Sotsialistik mehnat qaxramoni”.
3. Uch karra “Lelin” o‘rdeni.
3. “Oktyabr Revalyutsiyasi” o‘rdeni.
4. Ikki karra “Mehnat qizil bayroq” o‘rdeni.
5. “Fidokorona mehnatlari uchun” medali
6. “SSSR Davlat mukofoti laureati”
7. “SSSR xalq artisti”.
8. SSSR fanlar akademiyasi akademigi va xorijiy akademiyalarning faxirli a’zosi etib saylangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ensiklopedichiskiy slovar yunoga muzikanta, 1985.
2. IMPROVEMENT OF CHEMISTRY COURSE ON THE BASIS OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES M_Akbarova - Scienceweb academic papers collection, 2022.
3. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / ISSN 2181-063X Volume 3 Issue 4 / December 2022 AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARIGA BILIM BERISHDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALAR Moxigul Gulomovna Akbarova Bakhodir Xudoykulovich Xodjakulov.